O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

191400, Sherobod tumani, Navoiy ko`chasi, 22-uy, tel:0(376)3222621, fax: 0(376)3221033, sherabod@exat.uz

2023 - yil 20 - fevral 35-8-119-Q/23 Sherobod tuman hokimligi

Tumanda 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda Nizom) muvofiq transport vositalarining 2023-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

QAROR QILAMAN

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga,

jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2023-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari qo‘yidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun

jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari-bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari)-ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgantransport vositalaridan tashqari)-bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi-shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’iy nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta-1 mart-30 iyunda;

ikkinchi marta-1 sentabr-31 oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar-31 dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’ektlari-yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi amda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2022-yil 25-martdagi “Tumanda 2022-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 111 -8-1 1 9-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari Н.Махмадияров zimmasiga yuklatilsin.

Sherobod tumani hokimi **Xalilov Z.**

Sherobod tuman hokimining
2023 yil 20 fevraldagi
35-8-119-Q/23-son qaroriga
1-ilova

“Majburiy texnik ko‘rik”ni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tuman hokimligi qoshida tuzilgan ishchi guruh tarkibi

№	F.I.SH	-	Lavozimi
1	N.Maxmadiyarov	-	Tuman hokimining o’rinbosari, ishchi guruh raisi
2	H.Pardayev	-	Tuman IIB YHXX boshlig‘i, ishchi guruh raisi o‘rinbosari
3	N.Sobidinov	-	Surxondaryo viloyati transport boshqarmasi sektor mudiri
4	Lavozimiga ko‘ra	-	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi texnik xodimi
5	I.Qurbonov	-	Tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘limi inspektori
6	P.Muxammadiyev	-	“Sherobod hayoti” gazetasi bosh muharriri
7	Lavozimiga ko‘ra	-	Tumanda faoliyat yuritayotgan barcha yuk tashuvchi uyushmalar rahbarlari
8	Lavozimiga ko‘ra	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXB texnik xodimi, Komissiya kotibi

Sherobod tuman hokimining
2023 yil 20 fevraldagi
35-8-119-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Tuman hududidagi jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish
JADVALI

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan kunlar	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqt	Texnik ko‘rik o‘tkazish joyi
1	SAIDOBOD AGROSERVIS MMTP	Dushanba-shanba	01.03.2023	YPX maskani
2	RUSTAM SHERZOD FAYZ MMTP	Dushanba-shanba	02.03.2023	YPX maskani
3	ALIBOBO XUSUSIY FIRMASI	Dushanba-shanba	03.03.2023	YPX maskani
4	XALKARO YuK AVTOTRANS MCHJ	Dushanba-shanba	04.03.2023	YPX maskani
5	TOXIR XUSUSIY KORXONASI	Dushanba-shanba	06.03.2023	YPX maskani
6	RUSTAM SHERZOD FAYZMMTP	Dushanba-shanba	07.03.2023	YPX maskani
7	XASAN BOBOFX	Dushanba-shanba	08.03.2023	YPX maskani
8	SHEROBOD NOM XUK VA JIS SHAXS YuK VA YUL SHAX TRANS MCHJ	Dushanba-shanba	09.03.2023	YPX maskani
9	ZIEV SAIDMUROD KOBILOVICH FX	Dushanba-shanba	10.03.2023	YPX maskani
10	SAMANDAR -AVTO -TRANS M CHJ	Dushanba-shanba	11.03.2023	YPX maskani
11	SHEROBOD -INVEST TRANS MCHJ	Dushanba-shanba	13.03.2023	YPX maskani
12	DEZENFEKTSIYA STANTSIYASI MCHJ	Dushanba-shanba	14.03.2023	YPX maskani
13	XIDIROV SHERZOD MUROD MCHJ	Dushanba-shanba	15.03.2023	YPX maskani
14	JASMINA BAXT BARAKA MCHJ	Dushanba-shanba	16.03.2023	YPX maskani
15	XUJAYIKON TUZ MCHJ	Dushanba-shanba	17.03.2023	YPX maskani
16	BAXTI SHOX TRANS MCHJ	Dushanba-shanba	18.03.2023	YPX maskani

17	SAFAR JURA BAXROM MCHJ	Dushanba-shanba	20.03.2023	YPX maskani
18	NAZOKAT SFU FERMER XUJALIGI	Dushanba-shanba	21.03.2023	YPX maskani
19	MCHJ "MAGNUM-KOMVAYN-ALTAY!" M MTP	Dushanba-shanba	22.03.2023	YPX maskani
20	XUS. KORXONA "VARAKA-AGRO-TEX-FAYZ"XUS USIY KORXONASI KORXONASI	Dushanba-shanba	23.03.2023	YPX maskani
21	JUMA CHORSHANBIEV X.F	Dushanba-shanba	24.03.2023	YPX maskani
22	KISHLOK VA SUV XUJ. VAZ. KISHLOK XUJALIK KIMYo OCHIK XISSADORLIK JAMIYATI	Dushanba-shanba	25.03.2023	YPX maskani
23	XUS. KORXONA "TOXIR" XUSUSIY FIRMASI	Dushanba-shanba	27.03.2023	YPX maskani
24	MCHJ "AVTOJIXOZ-2004" MUKOBIL MTP	Dushanba-shanba	28.03.2023	YPX maskani
25	XUS. KORXONA OOO SHEROBOD KOMTEXSERVIS	Dushanba-shanba	29.03.2023	YPX maskani
26	FERMER XUJALIGI XALILOV TURGUN BAXODIROV ICH F/ X	Dushanba-shanba	30.03.2023	YPX maskani
27	AVTOMOB. VA SUV TR. AGENT. ALPOMISH -20 MCHJ	Dushanba-shanba	31.03.2023	YPX maskani
28	XUS. KORXONA SHERZOD-BEKZOD- RUSTAM XUSUSIY KORXONASI	Dushanba-shanba	01.04.2023	YPX maskani
29	XUS. KORXONA CHPP "TURKISTON YULLARI"	Dushanba-shanba	03.04.2023	YPX maskani
30	MCHJ BARLOS UL ZAMON MMTP	Dushanba-shanba	04.04.2023	YPX maskani
31	XUS. KORXONA GULNORA KIZI RAXIMAXON XUSUSIY KORXONASI	Dushanba-shanba	05.04.2023	YPX maskani
32	XUS. KORXONA CHF "JAXONGIR" XUSUSIY FIRMASI	Dushanba-shanba	06.04.2023	YPX maskani

33	AVTOMOB. VA SUV TR. AGENT. SAMANDAR AVTOTRANS M Ch J	Dushanba-shanba	07.04.2023	YPX maskani
34	XUS. KORXONA RAXMONKUL ABDURAIMJALIL XUSUSIY FIRMASI	Dushanba-shanba	08.04.2023	YPX maskani
35	XUS. KORXONA DIYoRBEK-SULTONBEK JAXONGIR XUSUSIY KORXONASI	Dushanba-shanba	09.04.2023	YPX maskani
36	MCHJ "AXROR SERVIS INVEST" M.M.TR	Dushanba-shanba	11.04.2023	YPX maskani